



MUHAMMADNIYOZ NISHOTIYNING “HUSN VA DIL” DOSTONI. ASARDA FOLKLOR AN’ANALAR

Matmusayeva Yulduzxon Mirzaliyevna
Guliston davlat universiteti
70230104-Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi
2-kurs magistranti.
Elektron manzil: matmusayevayulduz896@gmail.com
Tel: +998945851209
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14619698>

ARTICLE INFO

Received: 2nd January 2025
Accepted: 4th January 2025
Published: 8th January 2025

KEYWORDS

*doston, folklor, tasavvuf, obraz,
majoz, obi hayot, folklorning dostonidagi
ahamiyati, obrazli fikrlash, dostonning
o‘ziga xos xususiyati.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada xorazmlik shoir Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil” dostoni, asardagi folklor an’analar haqida fikr yuritildi. Maqolada Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil” dostoni Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni bilan solishtirilib, obrazlarga tasavvufiy jihatdan yondashildi. Maqolaning dolzarbligi, doston kompozitsion qurilishi boshqa dostonlarda uchramaydigan o‘ziga xos farqli jihatlarini yoritib berishdir.

Folklor atamasini 1946-yil ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan bo‘lib, u “xalq donoligi” degan tushunchani ifodalaydi.

Dastlabki vaqtlarda “el adabiyoti”, “xalq adabiyoti”, “og‘zaki adabiyot” “xalq og‘zaki ijodi” deb yuritib kelingan o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi ilk bor H. Zarifov (1934-35 yillar) tomonidan qo‘llanilgan “folklor”, “O‘zbek folklori” sifatida keng ommalashdi.

Folklorida xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy aks etadi. Folklore asarlari mag‘zida xalqning dunyoqarashlari, ibtidoiy mifologik tushunchalaridan mukammal diniy e‘tiqodiga bo‘lgan tushunchalar tadrijiy ravishda bo‘y ko‘rsatadi.¹

O‘zbek mumtoz adabiyotining XVII asr oxiri va XVIII asr boshlarida yashab ijod etgan namoyandalaridan biri Muhammadniyoz Nishotiydir. Shoir ijodi mavzu jihatdan rang-barangligi bilan adabiyotimizda ajralib turadi. Shoir Navoiy, Fuzuliy singari ulug‘ shoirlar izidan borib, ularning g‘oyalarini targ‘ib qildi. Asarlariga naziralar bog‘ladi. Nishotiy ijodida “Husn va Dil” dostoni ahamiyatlidir. Bu asar obrazli fikrlashning juda kam uchraydigan namunasi hisoblanadi.

Nishotiy hayoti va ijodi haqida ma‘lumotlar uning “Husn va Dil” asari orqali bizgacha yetib kelgan.² “Husn va Dil” dostonining kirish qismida shoirning tug‘ilib-o‘sgan vatani Xorazm ekani haqida kuylaydi:

Bor edi Xorazm diyori yerim,
Ondin edi yaxshi-yomon gavharim.

Dema oni bor edi jannat misol,
Yetmaguvsi vasfiga vahm-u xayol.

¹ Folklorshunoslikka kirish. M.Jo‘rayev, J.Eshonqulov. Toshkent-2017. 12-bet.

² Iqboloy Adizova. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent -2009, 183-bet.

Nishotiyning “Husn va Dil” dostoni 1192 hijriy, 1771 melodiy yilda yozilgan. Asar 62 bobdan iborat bo‘lib, kirish qismida go‘zal mahbub suratidagi bo‘ston maqталadi, 1-5 boblarda tabiat, inson, yer, suv, osmon, quyosh haqida fikrlar yuritiladi. 6-bobda shoirning yor-diyorga muhabbati, 7-bobda asarning yozilish sabablari, 8-bobida so‘z san‘ati va uning qudrati haqida mulohaza yuritiladi. 9- bobda shoir Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy singari ustozlarga shogirdlik ehtiromini ifoda qilsa, 10-bobda qalamga xitob qiladi. Dostoning asosiy boblari (11-62) da asar syujeti va unda qo‘yilgan masalalar yoritiladi.³

Nishotiy “Husn va Dil” asarida olijanob insoniy fazilatlarini, hayot va ma‘rifatni kuyladi, xalqning tinchlik, osoyishtalik haqidagi ideallarini ifoda etdi, majoziy obrazlar orqali insonparvarlik, vatanparvarlik, do‘stlik, sevgi-sadoqat kabi muhim hayotiy masalalarga doir ilg‘or qarashlarini bayon etdi.⁴

Asarda keltirilgan ma‘lumotga ko‘ra, Nishotiy o‘zidan avval yashagan to‘rt shoir: Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy xamsasini o‘qib, undagi rivoyat-u hikoyatlardan ta‘sirlangani, “Husn va Dil” dostonini ushbu shoirlar xamsasining birinchi dostoniga javob tariqasida yozganini ta‘kidlaydi:

To‘rt kitob andaki mazkur erur,
Xamsalig‘ oti bila mashhur erur.
Har birining avvalida bir kitob –
Bor edikim, andin edi fathi bob.
Birining oti: “Maxzani asrori shavq”,
Ul birisi: “Matlai’ anvori shavq”.
Yana biri: “Tuhfat ul-ahror” edi,
Biri aning: “Hayrat ul-abror” edi.
Man dog‘i anlarg‘a demoklik javob,
Istabon aytim bu so‘zi irtikob. (40)

Shoir xamsanavislar ham xomis-besh bo‘lmog‘i lozim deb hisoblaydi:

To‘rtovi chun xamsa qilib irtikob,
Xamsa laqab topti alarg‘a kitob.
Deguvchi ham besh bo‘lubon qiylu qol. (38)

Nishotiy dostonini yozishda Navoiy xamsasidan ilhomlangan deyish mumkin. Chunki Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni voqealariga o‘xshash jihatlar dostonida kuzatiladi. Farhodning yor vasliga erishish yo‘lidagi to‘siqlar, Nishotiy dostonidagi Fuodning go‘zal Husnga yetishish uchun turli qiyinchiliklarni yengib o‘tishi kabi holatlar bilan mosdir.

Shoir dostonida folklor an‘analardan unumli foydalangan. Asarning xalq og‘zaki ijodidagi dostonlarga xos bo‘lgan farzandsizlik motivi bilan boshlanishi, xayoliy sarguzashtga boylik, Raqib dev, sehr-u jodu, ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan, haqiqiy hayotdan yiroq holatlar, asarda obrazlarning turli og‘ir sinovlardan omon qolishi, qanotsiz uchishi, og‘ziga dur solganda ko‘rinmay qolishi, shuningdek, asarning to‘y-tantana bilan yakun topishi fikrimizning isbotidir. Xulosa qilib aytganda, dostonida Fuod(Dil) obrazi ishqqa muhtalo oshiq. Ammo bu ishq haqiqiy bo‘lmay, Ollohga bo‘lgan ishqdir. Asardagi “Husn” obrazi ham har tomonlama Dilga munosib yor, ahdiga vafoli. Asarda vaslga yetishish uchun mehnat, mashaqqat chekish g‘oyasi ilgari suriladi. Navoiy asarlarida bo‘lgani kabi, Nishotiy ham qiyinchilik, zahmat chekmay, yorning visoliga, ya‘ni Olloh vasliga yetib bo‘lmasligini asardagi majoziy timsollar orqali yoritib beradi. Dostonida Aqlshoh va Ishqshoh o‘rtasidagi jang Ishqning g‘alabasi bilan bilan

³ Xolid Rasulning Nishotiy “Husn va Dil” dostoni. Toshkent -1967, 6-7 betlar.

⁴ M.Qosimova Muhammadniyoz Nishotiy Toshkent-1987, 7-bet.

yakun topishi ham aql bor joyda ishq to'liq o'zligini nomoyon qila olmasligiga ishoradir. Asarni tasavvufiy tomondan o'rganish mazmunni to'laroq anglashga yordam beradi. Dil nazari dunyoviy hislardan tozalanib, yo'lida og'ishmay, dunyo noz-ne'matlaridan voz kecha olgani, sinovlarga sabr qilishi sabab obi hayot-hayot suviga yetishgani uning komillikka yetishkanidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayzullayeva, O. (2024). THE ISSUE OF FORM AND CONTENT IN LYRIC CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 2(1), 55-60.
2. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(6 Part 3), 118-125.
3. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(5), 332-340.
4. Kholbekovna, F. O. (2021). The issue of artistic idea in poetry. European Scholar Journal, 2(4), 233-236.
5. Mamatkulov, M., & Fayzullayeva, O. (2024). Expression Of Symbols And Allegorical Images In Lyric Cycles. Modern Science and Research, 3(1), 1-7.
6. Fayzullayeva, O. (2022). General Typological Characteristics Of Lyric Cycles. Science and innovation, 1(B5), 231-236.
7. Kholbekovna, F. O., & Dehqonovna, D. G. (2020). The Hero Issue In The Lyrics. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8), 3409-3413.
8. Xolbekovna, F. O. (2021). POETICS OF UZBEK CYCLE SONNETS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(6), 394-402.
9. Nasrullaev, E., Fayzullaeva, O., & Israilova, F. (2020). Analysis of Research on Navoi's Philosophical Beliefs. Solid State Technology, 63(4), 482-488.
10. Rahimjonov NM, Fayzullaeva OK. SPECIFIC ASPECTS OF RAUF PARFI'S POETRY. Bulletin of Gulistan State University. 2020;2020(3):23-9.
11. Ibrohimovna, M. S. (2019). TECHNIQUES OF IMPROVING SPEAKING IN ESP CLASSES FOR MILITARY. CONDUCT OF MODERN SCIENCE-2019, 139.
12. Djurayev, M., & Husenov, J. (2022). STUDIES IN GEOGRAPHY, CONFLICTS AND SOLUTIONS IN APPLIED GEOGRAPHY. Journal of Geography and Natural Resources, 2(01), 24-28.
13. Norimova, G. A. (2013). ESP (English for Specific Purpose-English for a specific purpose) or professionally oriented teaching of the English language. Text: direct//Young scientist, (6), 53.